

Saida Zunnunova hayoti va ijodi

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtiroom/saida-zunnunova>

Iste'dodli shoira, jozibali nasriy asarlar muallifi Saida Zunnunova 1926-yili Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi.

Otadan erta yetim qolgan Saida 1941-1943-yillarda Andijon pedagogika institutida tahsil oldi. Andijon maktablarida muallima, gazeta tahririyatlarida adabiy xodim bo'lib ishladi.

Saida Zunnunovaning birinchi she'ri 1945-yili "Paxta fronti" gazetasida bosilgan. Adabiyotda muhabbat yosh shoirani O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universitet)ning filologiya fakultetiga yetakladi. U o'qishni tamomlab, "Gulxan" jurnali, "O'zbekiston madaniyati" gazetasi va Badiiy adabiyot nashriyotida, shuningdek, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib xizmat qildi. Saida Zunnunova ayni kamolot yoshida 1977-yili og'ir xastalikdan keyin vafot etgan.

U yozuvchi Said Ahmadning sevimli rafiqasi edi. Ularning yolg'iz qizlari va nabiralari bor. Shoiraning yoshlik sururi, Vatan shukuhi va mehnat nashidasini tarannum etuvchi "Qizingiz yozdi" (1948), "Yangi she'rlar" (1950), "Gullar vodiysi" (1954), "Qizlarjon", "Bir yil o'ylari" (1967) she'riy to'plamlari kitobxonlar tomonidan katta quvonch bilan qabul qilindi. Saida Zunnunova nasrda ham sermahsul ijod etgan adibadir. Uning "Gulbahor" hikoyalar to'plamida (1956) ishchilar hayoti, oila va muhabbat mavzulari aks etgan bo'lsa, "Gulxan" (1958) qissasining asosiy qahramoni ayollar bo'lib, ularning yigirmanchi yillardagi kurashi o'ziga xos badiiy bo'yoqlarda ifodalangan. Adiba yozgan "Olov" (1962), "Bo'ylaringdan o'rgilay" (1972), "Direktor" kabi asarlarining qahramonlari ham ayollardir.

Yo'qlamagan har kuning yilcha bo'lurmi, hay-hay,
Shunchalik shafqat bilmas dilcha bo'lurmi, hay-hay.
Xush surating bir nafas tark etmas xayolimni,
Ko'z shahlo-yu, qosh esa nilcha bo'lurmi, hay-hay.

Har so'zda yuz andisha qilg'um donolig'ingdan,
Ko'nglingning nozikligi qilcha bo'lurmi, hay-hay.
Goh xanjar, goh asaldek so'zlaringdan dog'damen,
Jon olib, jon berguvchi tilcha bo'lurmi, hay-hay.

Vaslingning umidida dunyodan o'tib borgum,
Qanoatda Saida filcha bo'lurmi, hay-hay.

CHO'LI IROQ

Tarixni so'zlama menga, ey odam,
Bitta chalib bergin «Cho'li iroq»ni.

Bitta chalib bergin, toki yana ham
Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.

Bu kuy asrlarning baridan tortib
Cho'llarda toliqqan horgin karvonday
Ming xil taqdirlarni ustiga ortib,
Qalbidan jimirlab o'tadi qonday.

Tarixning eng olis qatlamlarida
Armonda uxlagan orzu-alamlar.
Dunyo manglayiga ajin tushirgan,
Dardni, qarilikni yaratgan g'amlar.

Sahro chechagining ayanch kulgusi,
Yomg'irdan jon kirgan tuproqning isi,
Hammasi o'tadi qalbimni o'yib.
Tuya bo'ynidagi qo'ng'iroqlarning
Tashnalik eslatgan jarangi bo'lib
Hammasi o'tadi qalbimni o'yib.

Tarixni so'zlama menga, ey odam,
Bitta chalib bergin «Cho'li iroq»ni.
Bitta chalib bergin, toki yana ham
Yaxshiroq ajratay korani, oqni.

Haddidan oshganga uni chalib ber,
Do'stlar diydorini g'animat bilmay,
Sarobga shoshganga uni chalib ber!
Chalib ber, chalib ber, andisha qilmay.
O'tmishni so'zlama, o'git kerakmas,
Shu kuyni bir marta chalib bersang bas.

* * *

Anhor labida juft-juft soyalar,

Jilmayib o'taman ko'z qirin tashlab.
Goh xayol qurmagur olib ketadi,
Bahona topganday yoshlikka boshlab.

Yo'q-yo'q, men turmadim oydin tunlarda,
Suvlar yoqasida ishq o'tida mast.
Men bunday damlarni yo'lga termulib,
Intizor o'tkazdim har on, har nafas.

Yoshligim, umrimni, halovatimni
Mardona topshirib vafo qo'liga,
Oylarni, yillarni minutlab sanab,
Tunu kun qaradim yorning yo'liga.

Hali begonaydik ajralishganda,
Ko'rishdik juda ham qadrdon, inoq.
Yulib olsa hamki hijron yor vaslin,
Qilib ketgan ekan unga yaqinroq.

* * *

She'r o'qigim kelar,
Quyma satrlardan
Yuragimga tushsa jimgina larza.
Meni boshlab ketsa ajib tuyg'ular
Yashillik yugurgan qir, adirlarga,
Yalang oyog'imni silasa maysa.

She'r o'qigim kelar,
Charchoq hislarga
So'lim va musaffo havo purkasa.
Qalbdagi bo'shliqni to'ldirib.
Olamni muattar islarga,
Yana chamanlarga burkasa.

She'r o'qigim kelar,
Notinchlikka chanqoq,
Qanotli o'ylarga tashna yuragim.
Sergak etsa ohanglar, kuylar,
O'tkazdirib tunlarni uyg'oq,
Tashna labga o'xshar yuragim.
She'r o'qigim kelar...

* * *

Maysa nish uribdi ariq bo'yida,
Birinchi sevgidek biram beg'ubor.
Quyoshga talpingan qiyoqlarida
Birinchi sevgining soddaligi bor.

Ko'rmagan saraton oftobini yeb,
Kuzning to'zonlarin mutlaqo bilmas.
Bulut ko'z yoshidan taltayib, ishq deb,
Bahor yellariga ko'z tutadi mast.

Maysa nish uribdi ariq bo'yida,
Birinchi sevgidek biram beg'ubor...

* * *

Gullar yuzida xanda - bu bog'dan yor o'tdimi,
Odatin qilmay kanda, yana bedor o'tdimi?

Yellar nechun sarsari, ketolmaydilar nari,
Ko'nglimning moh paykari ko'zi xummor o'tdimi?

Rayhonga rashk qilib gul, bag'ri qon bo'pti butkul,
Yana rayhon hidlab ul, bundan takror o'tdimi?

Har narsada nur, viqor, hatto tuproq baxtiyor,
Bir-bir bosib beozor, ul beozor o'tdimi?

Dilda takrorlab otin, tilab umru davlatin,
Soyasi bo'lib tag'in Saida zor o'tdimi?

QIZLARJON

Sevgi o't tashlasa yuragingizga,
Oydin tun bermasa tinchlik va uyqu.
Olam kuylaganday ko'rinsa sizga
Hamda asir etsa ajib bir tuyg'u
Tasalli izlaysiz hislaringizga,
G'azallar yodlaysiz varaqlab kitob.
Guldek qalbingizni yashnatar shunda
Sevgi satrlari bo'lib oftob.
Shunday kezda, qizlar, pok ishqingizga
Tarjimon bo'lolsa birona baytim,
Sirdosh bo'lib qolsam hamisha sizga,
Shu mening orzuyim, shodligim, baxtim.

* * *

Yoshimni so'rama, bema'ni bu oq
Oralay berarkan sochlarga har vaqt.
Shu o'tgan ozgina umrimga biroq,
Hech vaqt achinmayman, shuning o'zi baxt.

Xiyonat, g'iybatni bilmadim sira,
Nodonlik yo'liga qo'ymadim oyoq.
Ishqim bo'lsin, dedim, nurdek pokiza,
Balki shuning uchun sochimdagi oq.